

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

SODIKOVA NAZOKAT GAFOROVNA

**HOZIRGI ZAMON NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDA ASPEKTUAL
SEMANTIKAGA EGA ANALITIK BIRIKMALAR TURLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Sodikova Nazokat Gaforovna

Hozirgi zamon nemis va o‘zbek tillarida aspektual semantikaga ega analitik
birikmalar turlari 3

Содикова Назокат Гафоровна

Типы аналитических конструкций с аспектуальным значением в
современном немецком и узбекском языках 27

Sodikova Nazokat Gaforovna

Types of analytical constructions with aspectual semantics in modern
German and Uzbek languages 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 58

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

SODIKOVA NAZOKAT GAFOROVNA

**HOZIRGI ZAMON NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDA ASPEKTUAL
SEMANTIKAGA EGA ANALITIK BIRIKMALAR TURLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Fil5781 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdhti.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Rizayev Baxodir Xaydarovich**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Suleymanova Nilufar Jabborovna**
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ro'ziyev Yarash Bozorovich
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "14" noyabr soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 2433-78-43; faks: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdhti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand Davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (62385-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "30" oktyabr kuni tarqatildi.
2025-yil "30" oktyabr dagi №45 raqamli reyestr bayonnomasi.



N.Z.Nasrullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'.O'.Qo'ldoshov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A.Kiselyov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida tillarni grammatik ma'nolarni ifodalash usullariga ko'ra tasniflash an'anasi va ayrim tillarda grammatik ma'nolar asosan morfologik vositalar orqali qo'shimchalar yoki so'z shakllarining o'zgarishi yordamida ifodalanishini o'rganishga qiziqish ortib bormoqda. Tilning morfologik va sintaktik xususiyatlarini yoritish hamda aspektual shakllar bilan ularning o'rtasidagi semantik jihatdan bog'liqligini aniqlashga qaratilgan ko'plab ilmiy loyihalar buning isboti sifatida ko'rilmog'da. Nemis va o'zbek tillarida aspektual semantika turli analitik vositalar orqali ifodalangani, analitik fe'l shakllari tilning grammatik tizimida muhim o'rin tutibgina qolmay ular sintetik shakllar bilan birga funksional birlikni tashkil qilib, tilning semantik va sintaktik murakkablik darajasini oshirishiga e'tibor qaratish bugungi tilshunoslik sohasidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Dunyo ilmiy markazlarida aspektual ma'nolarni ifodalash vositalarini o'rganish eng murakkab masalalardan biri hisoblanmoqda. Shu bois aspektual ma'nolar sintetik va analitik usullar orqali ifodalanishi, morfologik vositalardan farqli o'laroq, analitik birikmalar hali umumiy qabul qilingan mezonlar asosida to'liq tasniflanmaganligi, bu esa tilning ma'no shakllantirish mexanizmlarini tizimlashtirishda bo'shliqni yuzaga keltirishi, bunday birikmalarni o'rganish turli tillar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni chuqurroq anglash zaruratga aylanmoqda. Nemis va o'zbek tillari kabi turli aspektual tizimlarga ega tillarning o'rganilishi ularning universal va o'ziga xos jihatlarini aniqlashga xizmat qilishi, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish imkonini berishi, analitik xarakterga ega birikmalarining umumiy tilshunoslikda o'rganilishi, analitik vositalarni so'z birikmalaridan ajratish mezonlari, nemis tilida aspektual ma'noli analitik xarakterga ega birikmalarining turlari va asosiy belgilari hamda o'zbek tilidagi analitik birikuvlarning struktural-semantik xususiyatlarini aniqlash tilshunoslik oldidagi dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, shuningdek, ijtimoiy hayotdagi chuqur o'zgarishlar ilm-fanning barcha yo'nalishlarida, jumladan, lisoniy tadqiqotlar sohasida ham o'z aksini topmoqda. "Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish"¹ masalasining kun tartibiga qo'yilganligi ham zamonaviy tilshunoslik sohasini innovatsion tamoyil hamda mezonlar bilan boyitish zaruratini yuzaga keltiradi. Natijada, zamonaviy nemis va o'zbek tillaridagi aspektual semantikaga ega analitik birikmalarni qiyosiy o'rganish, ularning strukturasi, funksional xususiyatlarini tahlil qilish nazariy va amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi. Aspektual semantikaga ega birikmalar turlicha grammatik hamda semantik usullar orqali

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. // Xalq so'zi, 09.10.2019. № 209 (7439).

harakatning boshlanishi, davom etishi yoki tugallanishini ifodalaydi. Ular harakatning borishini tavsiflash bilan birga vaqtni taqsimlash funksiyasini ham bajaradi. Shu bois, aspektual semantikani funksional-semantik nuqtayi nazardan tahlil qilish mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son “Ta‘lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son “Xalq ta‘limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Analitik vositalar masalasini ishlab chiqishda umumiy va german tilshunosligiga M.M.Guxman, V.M.Jirmunskiy, L.R.Zinder, T.V.Stroeva, O.I.Moskalskaya, V.G.Admoni, A.A.Leontev, Yu.L.Levitov, A.V.Baklushin, P.Ayzenberg, O.Toyber, R.Shchepanyak, N.W.Uschkowa² kabilar katta hissa qo‘shgan tadqiqotchilar hisoblanadi.

² Гухман М.М. Глагольные аналитические конструкции как особый тип сочетаний частичного и полного слова (на материале немецкого языка) // Вопросы грамматического строя. – Москва, 1955. – С. 322-361; Жирмунский В.М. Об аналитических конструкциях // Аналитические конструкции в языках различных типов. – Москва, Ленинград, 1965. – С. 5-57; Зиндер Л.Р., Строева Т.В. Историческая морфология немецкого языка. – Ленинград: Просвещение, 1968. – С. 263; Moskalskaja O. I. Grammatik der deutschen Gegenwartssprache. – Moskau, 1975. – 366 S; Адмони В.Г. Дополнительные функции аналитических форм // Аналитические конструкции в языках различных типов. – Москва, Ленинград, 1965. – С. 222-232; Леонтьев А.А. Аналитические формы и проблемы “Единства слова” // Аналитические конструкции в языках различных типов. – Москва, Ленинград, 1965. – С. 94-99; Левитов Ю.Л. О факторах, влияющих на выбор глагольных форм индикатива для выражения будущего в современном немецком языке // Учен. зап. Калнинского пед. ин-та. – Калинин, 1969. – С. 16-39; Баклушин А.В. Аналитичность и флективность в системе и тексте (на материале современного немецкого языка). – Иркутск: Из-во Иркут. Ун-та 1989. – С.184; Eisenberg Peter, Smith George, Teuber Oliver Ersatzinfinitiv und Oberfeld. Ein großes Rätsel der deutschen Syntax // Deutsche Sprache Potsdam, Berlin, 2002. – S.242-260; Teuber O. Analytischen Verbformen im Deutschen. Syntax – Semantik – Grammatikalisierung. – Hildesheim Zürich New York: Georg Olms Verlag, 2005. – S.240; Szczepaniak, Renata. Grammatikalisierung im Deutschen: Eine Einführung. – Tübingen: Narr Francke Attempto, 2014. – S. 263; Ушкова Н.В. Аналитическая репрезентация концепта в языке: Дисс. ... д-ра филол. наук. – Тамбов, 2006. – 410 с.

Qiyosiy tahlil jihatidan mazkur masala yuzasidan J.Bo‘ronov, A.A.Yuldashev, X.A.Dadaboyev va M.A.Eroglu³ kabi olimlarning ishlarida chuqur izlanishlar olib borishgan.

Turkiy tillarida analitizm masalalari B.A.Serebrennikov, A.G‘.G‘ulomov, A.A.Yuldashev, A.Hojiyev, S.T.Normatova, M.I.Begmatovalarning⁴ ishlarida yoritilgan. Shu qatorda, D.M.Nasillov, N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyev, Ju.Lagunov, S.Pepouna, M.A.Eroglu, Yu.Yu.Xlistunova N.N.Ulyanova, H.Vater, A.O.Muminovalarning⁵ ishlarida analitik birikmalar bilan bog‘liq bo‘lgan aspektual (tur, harakat tarzi va faza bosqichlari) ma‘nolari ko‘rib chiqilgan bo‘lishiga qaramay, yuqorida aytib o‘tilgan ishlarda nemis va o‘zbek tillarida aspekt ifodalanishining qiyosiy tahlili, ularning struktur-semantik xususiyatlari, fe‘l birikmalarining tarkibiy hamda ma‘noviy xususiyatlari sifatida qo‘llanishi, nemis va o‘zbek tillaridagi analitik birikmalarning o‘zaro muqobilligi, ularning tuzilma, ma‘no jihatidan o‘xshash, shuningdek, farqli jihatlari yetarlicha chuqur va keng tadqiq qilinmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, “Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qardosh bo‘lmagan nemis va o‘zbek tillarida aspektual ma‘noga ega bo‘lgan analitik birikmalarni tasniflash hamda nemis tilidagi analitik vositalarni o‘zbek tiliga o‘girish usullarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

nemis va o‘zbek tillarida tor va keng aspektual ma‘nolar faqat sintetik shakllar bilan emas, balki analitik xarakterga ega birikmalar orqali ham

³ Бўронов Ж. Инглиз ва ўзбек тиллари қиёсий грамматикаси. – Тошкент, 1973. – 284 б; Юлдашев А.А. Аналитические формы глагола в тюркских языках. – Москва: Наука, 1965. – С. 274; Дадабоев Х.А., Холмонова З.Т. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси. – Тошкент: Тафаккур бўстони, 2015. – 224 б.; Эроглу М. А. Видовременные формы глагола турецкого языка в сопоставлении с русским (сравнительно с другими тюркскими языками): Автореф. Дисс. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 2000. – С. 20.

⁴ Сereбренников Б.А. К вопросу о “морфологизме” / Аналитические конструкции в языках различных типов. – М., 1965. – С. 99-104; Гуломов, А. Ф. Ҳозирги замон ўзбек тили. – Тошкент, 1957. – 469 б.; Юлдашев А.А. Аналитические формы глагола в тюркских языках. – Москва: Наука, 1965. – С.274; Хожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. – Тошкент: Фан, 1966. – 223 б.; Норматова С. Т. Аналитические глагольные формы в узбекском языке. – Ташкент: Фан, 2005. – С. 212; Бегматова М.И. Грамматикализация аналитических форм в узбекском языке. – Ташкент: Фан, 2009. – С.156.

⁵ Насилов Д.М. Аспектуальные значения аналитических образований и разряды глагольной лексики в узбекском языке // Теория грамматического значения и аспектологические исследования. – Ленинград: Наука, 1984. – С.128-165; Махмудов Н., Нурмонов А., Собиров А., Набиев Д. Она тили. – Тошкент: Тасвир, 2009. – 176 б.; Lagunov Ju. Interdependenzen von Aspektualität und Modalität aus kognitiver Sicht kontrastive Übersetzungsanalysen Russisch-Deutsch. – Göttingen: Niedersächsische Staats- und Universitätsbibliothek Göttingen, 2014. – S.214; Pepouna S. Aktionsart, Zeitkonstitution und Aspekt // Eine Untersuchung am Beispiel des Deutschen, Französischen und des Polnischen. – Regensburg: Peter Lang – Internationaler Verlag der Wissenschaften, 2007.– S. 214; Эроглу М. А. Видовременные формы глагола турецкого языка в сопоставлении с русским (сравнительно с другими тюркскими языками): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 2000. – 20 с.; Хлыстунова Ю.Ю., Ульянова Н.Н. Межъязыковые соответствия и лакуны фазовости в современном русском, английском и немецком языках // Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации: сб. статей IX Международной научно-практической конференции: в 4-х ч. – Пенза: Наука и просвещение, 2018. Ч. 4. – С.18-21; Vater H. Das deutsche Perfekt. Tempus oder Aspekt oder beides? // Aspektualität in germanischen und slawischen Sprachen. – Poznan: Uniwersytet im. Adama Mickiewicza, 2000. – S. 87-107; Муминова А.О. Ҳозирги замон немис ва ўзбек тилларида юриш-ҳаракат феълларининг аспектуал семантикаси: Филол. фанлари бўйича фалсафа док. (PhD)... дисс. – Самарқанд, 2021. – 171 б.

ifodalanishi hamda ushbu tillarda aspekt ifodalanishining leksik, morfologik, grammatik, funksional-semantik va idiomatik xususiyatlarini ochib berish;

nemis tilida fazaviy harakat tarzi qiymatlarini analitik usulda aks ettiruvchi birikmalarni o'tgan va kelasi zamon shakllari, faza ma'nosiga ega bo'lgan fe'llar bilan infinitiv birikmalari hamda funksional fe'l-ot birikuvlari kabi uchta turi ajratilib, har qaysi ajratilgan tur tarkibiy va ma'no jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgani sababli ularni o'rtasida o'xshash hamda farqli belgilari mavjudligini asoslash;

yakuniy faza ma'nosini ifodalovchi analitik vosita sifatida faqat chegaralanmagan fe'llar qatnashishi, doimiy komponent sifatida finitiv ma'noga ega fe'llar, turg'un birikmalar qo'llanilishi, o'zbek tilida faza ma'nosi asosan uch xil fazaviy fe'llar, finitiv turg'un so'z birikmalari, finitiv analitik shakllarni hosil qiluvchi ko'makchi fe'llar orqali ifodalanishini ochib berish;

nemis va o'zbek tillarida zamon shakllari orasida semantik jihatdan yaqinliklar mavjudligini aniqlash, ularning grammatik ifoda vositalari turlicha bo'lib kelishi, nemis tilida bu analitik shakllar, o'zbek tilida esa sintetik qo'shimchalar yoki analitik birikmalar bilan ifodalanishi, har ikkala tilda ham bu shakllar harakatning vaqt ichidagi holatini, yakunlanganligini, davomiyligini yoki kelajakdagi ehtimoliy yakunini bildirishini asoslash.

Tadqiqotning obykti sifatida nemis va o'zbek tillaridagi analitik xarakterga ega birikmalar olingan.

Tadqiqotning predmetini nemis va o'zbek tillaridagi analitik xarakterga ega bo'lgan birikmalarning aspektual xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda analitik, struktur-semantik, qiyoslash, korpusga asoslangan kontrastiv tahlil, "maydon" usuli, leksik-semantik, funksional-semantik va konstruksion tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

nemis va o'zbek tillarida boshlanish, davom etish, yakunlanish, takroriylik kabi tor va perfektivlik, imperfektivlik kabi keng aspektual ma'nolar faqat morfologik-sintetik shakllar (fe'l qo'shimchalari va zamon shakllari) bilan emas, balki grammatik va funksional jihatdan analitik xarakterga ega yordamchi fe'llar va qo'shma fe'l-birikmalar orqali ham ifodalanishi hamda ushbu tillarda aspekt ifodalanishining voqelikni davomiyligi, tugallanishi yoki bosqichlilik darajasini ifodalash kabi leksik xususiyatlari ochib berilgan;

nemis tilida fazaviy harakat tarzi qiymatlarini analitik usulda aks ettiruvchi birikmalarni o'tgan (Perfekt, Plyuskvamperfekt) va kelasi (Futur I va II) zamon shakllari, faza ma'nosiga ega bo'lgan fe'llar bilan infinitiv birikmalari hamda funksional fe'l-ot birikuvlari kabi uchta turi tarkibiy va ma'no jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgani sababli ularni o'rtasida "*hatte/war + Partizip II*" formasi va "*gan, edi*" shaklidagi o'xshash hamda yordamchi fe'l tanlovi, fazaviy ma'no berish darajasi kabi farqli belgilari mavjudligi asoslangan;

yakuniy faza ma'nosini ifodalovchi analitik vosita *-ib* + yordamchi fe'l konstruksiyalari hamda "yakun, nihoya, oxiriga yetish" tipidagi birikmalarga ko'ra nemis tilida *aufhören + zu + Infinitiv* hisoblanishi, o'zgaruvchan komponent sifatida faqat chegaralanmagan fe'llar qatnashishi, doimiy komponent sifatida

finitiv ma'noga ega bo'lgan *unterbrechen, enden, beenden, abschließen* kabi fe'llar hamda turg'un *zu Ende sein, zu Ende bringen* kabi ot-fe'l birikmalari qo'llanilishi hamda o'zbek tilida ushbu faza ma'nosi asosan uch xil *tugatmoq, tamomlamoq* kabi fazaviy fe'llar, *ado bo'lmoq, barham bermoq* kabi finitiv turg'un so'z birikmalari, *bo'l, bit, bitir, chiq* singari finitiv analitik shakllarni hosil qiluvchi ko'makchi fe'llar orqali ifodalanishi ochib berilgan;

nemis va o'zbek tillarida zamon shakllari orasida harakat va holat munosabatiga ko'ra semantik yaqinliklar aniqlanib, ularning grammatik ifoda vositalari turlicha bo'lib kelishi, nemis tilida bu analitik shakllar (yordamchi fe'l + Partizip II) orqali, o'zbek tilida esa sintetik qo'shimchalar yoki analitik birikmalar (fe'l + yordamchi fe'l) bilan ifodalanishi, har ikkala tilda ham bu shakllar harakatning vaqt ichidagi holatini, yakunlanganligini, davomiyligini yoki kelajakdagi ehtimoliy yakunini bildirishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

nemis va o'zbek tillaridagi aspektual ma'noli analitik birikmalarni qiyosiy tasniflash, nemis tilida mavjud bo'lgan analitik vositalarning o'zbek tiliga o'girish usullarini tahlil qilish natijasida ikki tildagi o'xshash hamda farqli jihatlar aniqlangan va bu natijalaridan til o'rgatish, shu bilan bir qatorda tarjima amaliyotida foydalanish imkonini yaratgan;

ushbu tadqiqot semantika, sintaksis, grammatika va aspektologiya sohalarini uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanligi asoslangan hamda qardosh bo'lmagan ikki tildagi mushtarak tamoyillar, ularning o'ziga xosliklarini belgilash imkoniyati mavjudligi haqida ma'lumot berilgan;

tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik fanining rivojlanishiga hissa qo'shishi, xususan, tillarning struktur va semantik o'ziga xosliklarini chuqurroq tushunishga yordam berishi, aspektuallik (aspekt, fazaviylik, harakat tarzi kategoriyalari) sohalaridagi tushunchalarning takomillashuviga ham ijobiy ta'sir etishi ko'rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullar zamonaviy nazariyalarga to'liq mos keladi hamda metodologik jihatdan puxta asoslangan. Asosiy faktologik til materiallari aspektologiya sohasidagi yangi ilmiy-nazariy natijalar asosida tahlil qilingan va ishonchli manbalardan olingan. Tadqiqotning xulosalari nazariy jihatdan mustahkam va aniq bo'lib, amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etilgan. Olingan natijalarning haqqoniyligi vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan bo'lib, bu natijalarni tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyatini oshiruvchi asosiy omil sifatida ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati nemis va o'zbek tillaridagi aspektual ma'noli analitik birikmalar turlarini semantik hamda struktur jihatdan ajratish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, ushbu tahlilni funksional-semantik maydondagi munosabatlar bilan bog'liq ravishda amalga oshirishda namoyon bo'ladi hamda bu tadqiqot natijasida nemis va o'zbek tillaridagi analitik vositalarning semantik ma'nolarini yuzaga chiqarish omillari modellari asosida tasniflanib, ularning o'zaro qiyosiy tahlili uchun yangi usullar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa uning natijalaridan ta'lim jarayonida nemis va o'zbek tillari aspektologiyasi, grammatikasi, leksikologiyasi kabi fanlar bo'yicha maxsus kurslar va seminar mashg'ulotlarini o'tkazishda foydalanish mumkinligida namoyon bo'ladi va ushbu natijalar bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyalari va ilmiy tadqiqotlar yozishda, hamda o'quv-uslubiy qo'llanmalar, darsliklar yaratishda qo'llash uchun ham foydali hisoblanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qardosh bo'lmagan nemis va o'zbek tillarida aspektual ma'noga ega bo'lgan analitik birikmalarni tasniflash hamda nemis tilidagi analitik vositalarni o'zbek tiliga o'girish usullarini tadqiq qilish asosida:

nemis va o'zbek tillarida boshlanish, davom etish, yakunlanish, takroriylik kabi tor va perfektivlik, imperfektivlik kabi keng aspektual ma'nolar faqat morfologik-sintetik shakllar (fe'l qo'shimchalari va zamon shakllari) bilan emas, balki grammatik va funksional jihatdan analitik xarakterga ega yordamchi fe'llar va qo'shma fe'l-birikmalar orqali ham ifodalanishi hamda ushbu tillarda aspekt ifodalanishining voqelikni davomiyligi, tugallanishi yoki bosqichlilik darajasini ifodalash kabi leksik xususiyatlari ochib berilganligiga oid xulosalardan Yevropa Ittifoqining Erasmus + 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: "O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 17-yanvardagi 154/02-son ma'lumotnomasi). Natijada, nemis va o'zbek tillaridagi analitik vositalarning semantik ma'nolarini yuzaga chiqarish omillari modellar asosida tasniflanib, ularning o'zaro qiyosiy tahlili uchun yangi usullar ishlab chiqilgan;

nemis tilida fazaviy harakat tarzi qiymatlarini analitik usulda aks ettiruvchi birikmalarni o'tgan (Perfekt, Plyuskvamperfekt) va kelasi (Futur I va II) zamon shakllari, faza ma'nosiga ega bo'lgan fe'llar bilan infinitiv birikmalari hamda funksional fe'l-ot birikuvlari kabi uchta turi tarkibiy va ma'no jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgani sababli ularni o'rtasida "hatte/war + Partizip II" formasi va "gan, edi" shaklidagi o'xshash hamda yordamchi fe'l tanlovi, fazaviy ma'no berish darajasi kabi farqli belgilari mavjudligi asoslanganligi natijasida olingan xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2022-2024- yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSH elchixonasi hamda Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan "English Access Microscholarship Program" loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 16-yanvardagi 137/02-son ma'lumotnomasi). Natijada, ikki tildagi o'xshash hamda farqli jihatlarni til o'rgatish va tarjima amaliyotida foydalanish imkonini yaratilgan hamda qiyosiy tilshunoslik fanining rivojlanishiga hissa qo'shib, tillarning struktur va semantik o'ziga xosliklarini chuqurroq tushunishga yordam bergan, aspektuallik sohalaridagi aspekt, fazaviylik, harakat tarzi kategoriyalari kabi tushunchalarning takomillashuviga xizmat qilgan;

yakuniy faza ma'nosini ifodalovchi analitik vosita -ib + yordamchi fe'l konstruktsiyalari hamda "yakun, nihoya, oxiriga yetish" tipidagi birikmalarga

ko'ra nemis tilida aufhören + zu + Infinitiv hisoblanishi, o'zgaruvchan komponent sifatida faqat chegaralanmagan fe'llar qatnashishi, doimiy komponent sifatida finitiv ma'noga ega bo'lgan unterbrechen, enden, beenden, abschließen kabi fe'llar hamda turg'un zu Ende sein, zu Ende bringen kabi ot-fe'l birikmalari qo'llanilishi hamda o'zbek tilida ushbu faza ma'nosi asosan uch xil tugatmoq, tamomlamoq kabi fazaviy fe'llar, ado bo'lmoq, barham bermoq kabi finitiv turg'un so'z birikmalari, bo'l, bit, bitir, chiq singari finitiv analitik shakllarni hosil qiluvchi ko'makchi fe'llar orqali ifodalanishi ochib berilgan xulosalardan Qarshi davlat universitetida 2021-2023 yillarda amalga oshirilgan SUZ-800- 21GR-381 "Reinforcing English Language competence at Karshi State University" nomli xalqaro grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2025-yil 25-yanvardagi 04/296-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'zbek va nemis, tillaridagi analitik birikmalarning o'zaro muqobilligi hamda ularning tuzilma va ma'no jihatidan o'xshash va farqli jihatlari asoslangan;

nemis va o'zbek tillarida zamon shakllari orasida harakat va holat munosabatiga ko'ra semantik yaqinliklar aniqlanib, ularning grammatik ifoda vositalari turlicha bo'lib kelishi, nemis tilida bu analitik shakllar (yordamchi fe'l + Partizip II) orqali, o'zbek tilida esa sintetik qo'shimchalar yoki analitik birikmalar (fe'l + yordamchi fe'l) bilan ifodalanishi, har ikkala tilda ham bu shakllar harakatning vaqt ichidagi holatini, yakunlanganligini, davomiyligini yoki kelajakdagi ehtimoliy yakunini bildirishi asoslanganligiga doir mulohazalardan Samarqand viloyati teleradiokanalida 2025-yil yanvar oyi davomida efirga uzatilgan "Assalom, Samarqand!" ko'rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokanalining 2025-yil 4-fevraldagi 01-07/70-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, madaniyatlararo aloqani mustahkamlashda ikki tildagi o'xshash hamda farqli jihatlari aniqlangan va bu natijalar til o'rgatish va tarjima amaliyotida foydalanish imkonini yaratilgan. Tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik fanining rivojlanishiga hissa qo'shishi, xususan, tillarning struktur va semantik o'ziga xosliklarini chuqurroq tushunishga yordam berishi haqidagi ilmiy xulosalar ilmiy izlanish olib borayotgan tilshunoslar va adabiyotshunoslar uchun muhim nazariy manbaa bo'lib xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishi natijalari ilmiy-amaliy anjumanlarda, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 12 ta ilmiy maqola va tezis nashr etilgan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy va 4 tasi respublika ilmiy jurnallarida chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, boblar bo'yicha xulosalar, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 133 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, uning respublika ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan. Shuningdek, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'yekti va predmeti, mavzunung o'rganilganlik darajasi belgilangan, tadqiqot metodlari ko'rsatilgan. Olingan natijalarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati bayon etilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, muhokamasi va nashri haqida ma'lumot berilgan, shuningdek, dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumot taqdim etilgan.

Dissertatsiyaning **“Tilshunoslikda analitik birikmalarning o'rganilishi”** nomli birinchi bobi tilshunoslikda analitik konstruksiyalarni o'rganishdagi yondashuvlarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Ushbu bobda nemis va o'zbek tillaridagi analitik shakl va konstruksiyalarning turlari, ularni boshqa til birliklaridan ajratish mezonlari, shuningdek, qiyoslanuvchi tillarda ularning funksional xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda asosiy e'tibor analitik konstruksiyalarning aspektual mazmuni va struktur-semantik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Analitik morfologiya grammatik ma'nolarni analitik usulda, ya'ni mustaqil leksik ma'noli so'z va yordamchi so'zlarning birikmasi orqali ifodalashni o'rganadi.⁶ Yordamchi so'zlar, ko'pincha, mustaqil so'zning grammatik ma'nosini ifodalash uchun xizmat qiladi. Bir grammatik ma'no sintetik shakl orqali, masalan, (*U*) *yozayapti, yozdi, yozadi* so'zlari orqali ifodalanishi mumkin. Bunda hozirgi, o'tgan va kelasi zamon ma'nolari aks ettiradi. Analogik ravishda, grammatik ma'no mustaqil so'z va yordamchi so'zlar birikmasi – analitik shakl orqali ham ifodalanishi mumkin: *yozayotgan edi, yozib bo'ldi, yozib bo'lgan edi, yozib bo'ladi*.

Analitik shakl tarkibiy qismlari bir butunlik hosil qiladi. U ikki yoki undan ortiq so'z shakllaridan iborat bo'lib, ma'no va funksiyada bir so'z shakli vazifasini bajaradi. Masalan, nemis tilida *schrieb* va *hat geschrieben* shakllari bir xil fe'lning ikki xil ifodasidir. Bu yerda *hat* yordamchi so'zi desemantizasiyalangan, ya'ni mustaqil leksik birlik ma'nosini yo'qotgan.

Analitik birikmalarda yordamchi komponentning leksik ma'nosi zaiflashadi yoki yo'qoladi. Bu holat butun birikmani so'zning analitik shakliga aylantirib, grammatik ma'noning ustunligini ta'minlaydi. Yordamchi so'zning kuchsizlanish (zaiflashish) darajasi qisman ma'nosini yo'qotishdan to'liq yo'qotishgacha o'zgarishi mumkin.

Tilshunoslikda “analitik shakl” tushunchasi ikki xil – tor va keng ma'noda izohlanadi. **Tor ma'noda**, analitik shakl to'liq ma'noli so'z va grammatik vazifani bajaruvchi yordamchi so'zdan iborat birikmani anglatadi. Bunda asosiy mezonlar quyidagicha: (a) yordamchi fe'l o'zining leksik ma'nosini to'liq yo'qotadi va grammatiklashadi; (b) birikma grammatik jihatdan bo'linmas, bitta sintaktik birlik hisoblanadi; (v) birikma idiomatik xususiyatga ega bo'ladi. **Keng ma'noda**,

⁶ Жирмунский В. М. Об аналитических конструкциях // Аналитические конструкции в языках различных типов. – Москва, Ленинград, 1965. – С. 7.

“analitik shakl” tushunchasiga odatda “analitik konstruksiya” deb nomlangan birikmalar ham kiradi. Bu holatda asosiy mezonlar quyidagicha: (a) birikmaning strukturaviy va funksional-semantik xususiyatlari birgalikda tahlil qilinadi; (b) yordamchi fe’l o‘zining to‘liq leksik ma’nosida ham ishlatilishi mumkinligi tan olinadi; (v) grammatikalashuv darajasi yoki idiomatiklik ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo‘ladi.

Shular asosida, tadqiqotda “analitik shakl” va “analitik konstruksiya” tushunchalarini umumiy “analitik xarakterga ega birikmalar” sifatida tushunamiz. Ularni bir funksional-semantik maydonda joylashtirish mezon – tarkibiy shakllanishi va aspektual ma’noni ifodalash xususiyatidir.

Analitik xarakterga ega birikmalar (AB) erkin so‘z birikmalaridan morfologik va funksional jihatdan farqlanadi: erkin so‘z birikmalari leksik jihatdan to‘liqligi bilan ajralib turadi va uning grammatik ma’nosi butun birikmaning ma’nosini tashkil qiladi. Shu bois, erkin birikma grammatik jihatdan bo‘linadi; analitik shakl esa umumiy grammatik ma’noning birligi bilan tavsiflanadi va grammatik jihatdan bo‘linmas hisoblanadi.

Nemis tilida aspektual va fazaviy ma’nolarni analitik usulda ifodalovchi birikmalar uch turga ajratiladi: 1) o‘tgan (perfekt, plyuskvamperfekt) va kelasi (futur I va II) zamon shakllari; 2) faza ma’nosiga ega bo‘lgan fe’llar bilan birikmalar; 3) funksional fe’l + ot birikmalari.

1.1-jadval

Aspektual ma’nolar bilan bog‘langan analitik birikmalar turlari

AB turlari	Shakllar	Aspektual ma’no
I.Zamon shakllari: Perfekt Plyuskvamperfekt Futur II	haben, sein + Partizip II hatte, war + Partizip II werden + Infinitiv II – (wird gemacht haben)	Tur (aspekt), ya’ni tugallanganlik/ protsessuallik
II. Faza ma’nosiga ega bo‘lgan fe’llar bilan birikmalar	beginnen + zu + Infinitiv anfangen + zu + Infinitiv pflegen + zu + Infinitiv fortfahren + zu + Infinitiv aufhören + zu + Infinitiv ablassen + zu + Infinitiv	Harakat tarzi bilan bog‘liq ma’nolar (boshlanish, davom etish, yakunlanish, takrorlanish va boshqalar)
III. Funksional fe’l + ot birikmalari	100 ga yaqin funksional fe’llar bilan birikmalar: zum Ziel kommen, in Gang bringen, zu Ende gehen va boshqalar	Harakat tarzi bilan bog‘liq bo‘lgan ma’nolar

Birinchi guruhga kiritilgan zamon analitik shakllarining aspekt ma’nosi bilan bog‘liqligi bo‘yicha turli yondashuvlar mavjud. Ba’zi tadqiqotchilar zamon shakllarini faqat temporal, deb hisoblasa, boshqalar ularda aspektual ma’nolar ham mavjudligini tan oladi. Biz ushbu shakllarni zamon va tur (aspekt) ma’nolarini o‘z ichiga oluvchi birlik sifatida qabul qilamiz.

Ikkinchi guruhga kiruvchi birikmalarda asosiy rol fazaviy fe'llar tomonidan bajariladi. Ular harakatning boshlanishi, davom etishi yoki tugallanishini ifodalaydi. Masalan: (1) *weinen* – (yig'lamoq) – *ausweinen* (yig'lab bo'lmoq). Bu misolda *aus-* prefiksi harakatning tugallanishini sintetik yo'l bilan ifodalaydi. (2) *Sie hörte auf zu weinen* – (U yig'lashdan to'xtadi). Bu yerda *aufhören* fe'li yig'lash jarayonining vaqtincha to'xtatilganligini analitik usulda ifodalaydi. Shunday qilib, birinchi jumlada tur ma'nosi sintetik shaklda berilgan bo'lsa, ikkinchi misolda harakatning tugallanish fazasi analitik usulda aks etgan. Fazaviy fe'llar analitik xarakterga ega birikmalar tarkibida asosiy rolni o'ynaydi. Fazaviy fe'llar “boshlanish”, “davom etish”, “tugallanish” kabi mavhum semantik ma'nolarni ifodalovchi, har qanday jarayonni tavsiflash imkoniyatiga ega universal semantik konstantlar sifatida qaraladi. Ular grammatik-semantik funksiyalar doirasiga kiradi va shu bois bu turdagi fazaviy fe'llar bilan hosil bo'lgan birikmalarga “analitik konstruktsiya” atamasini qo'llash maqsadga muvofiq sanaladi.⁷

Uchinchi turga kiruvchi funksional fe'lli birikmalarda yordamchi yoki yarim yordamchi fe'l o'zining mavhum (ko'chma ma'noda) lug'aviy ma'nosini saqlab qoladi. Bu birikmalar ikkinchi komponent bilan birgalikda turli harakat tarzi, ya'ni aspektual ma'nolarni ifodalaydi. Masalan: *in Gang bringen* (inxoativlik – bir holatdan boshqa holatga o'tish), *in Bewegung geraten* (*setzen*) (boshlanish), *zu Ende bringen, ein Ende finden* (tugallanish), *zur Ruhe kommen* (natijaviylik), *sich in Bewegung befinden, unter den Erwartungen bleiben, im Sterben liegen* (durativlik – bir holatda bo'lish).⁸

Ushbu uchta turni birlashtiruvchi asosiy semantik belgi – aspektual ma'no hisoblanadi. Ular aspekt (I) va fazaviy harakat tarzi (II, III) bilan bog'liq ma'nolarni ifoda etishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, har bir turga xos bo'lgan ayrim farqlantiruvchi xususiyatlarni ajratish mumkin. I turdagi konstruktsiyalarda yordamchi fe'llar (*haben, sein, werden*) o'zlarining leksik ma'nosini to'liq yo'qotadi va faqat grammatik vazifani bajaradi. II turdagi fazaviy fe'llar esa yordamchi vazifasini bajargan bo'lsa-da, o'z leksik ma'nosini saqlab qoladi. III turda esa funksional fe'llar konkret lug'aviy ma'noda emas, balki mavhum (ko'chma) ma'noda qo'llaniladi.

Bundan tashqari, agar I guruhda yordamchi fe'l bilan birikkan o'zgaruvchan komponent sifatida jarayonni ifodalovchi asosiy fe'lni Partitsip II (sifatdosh II) shakli qatnashsa, II guruhda ikkinchi (o'zgaruvchan) komponent sifatida protsessni ifodalovchi fe'l *zu* + *Infinitiv* shaklida ishtirok etadi; III turga kiritilgan birikmalar tarkibida ikkinchi komponent sifatida mavhum ot shakli qo'llaniladi. Demak, bu tuzilmalarda farqlovchi belgilar nafaqat yordamchi fe'llarning, balki ular bilan birikkan ikkinchi komponentning ham strukturaviy va semantik xususiyatlariga tegishlidir.

Funksional-semantik jihatdan umumlashtirilgan holda, analitik xarakterga ega birikmalar quyidagicha ifodalanadi: Analitik birikma (**AB**) = doimiy komponent

⁷ Ризаев Б.Х. Аналитические средства семантического поля финитивности в современном немецком языке. – Самарканд: СамГИИЯ, 2019. – С. 16-17.


⁸ Рисаева О.М. Аспектуальная семантика конструкций с функциональными глаголами в современном немецком языке. – Самарканд: СамГИИЯ, 2020. – С. 46 - 55.

(DK) + protsessni ifodalovchi o'zgaruvchan komponent **(O'K)**, ya'ni: **AB = DK + O'K**.

Umumlashtirilgan holda aspektual ma'no bilan bog'langan analitik birikmalarni qu'yidagicha ifodalash mumkin:

Har bir turning semantik va strukturaviy xususiyatlari mavjud bo'lib, ularning umumiy xususiyati – bitta sintaktik va semantik birlik sifatida harakat tarzi yoki tur (aspekt) ma'nolarini ifodalashidir.

Aspektual ma'noli analitik xarakterga ega konstruksiyalar



1.1-rasm. Aspektual ma'noli analitik konstruksiyalar.

O'zbek tilidagi analitik birikmalar turlicha nomlanadi va sharhlanadi. Ulardan asosiy va eng ko'p qo'llanadigani, aspektual ma'nolar bilan bog'liq bo'lgan birikmalar, ya'ni yetakchi va ko'makchi fe'llarning ("ravishdosh" + ko'makchi fe'l) birligi asosida hosil bo'lgan birikmalardir. Masalan, faza ma'nolari quyidagi shakllar orqali ifodalanadi:

Boshlang'ich faza: **(i)b + ketmoq** – *yashnab ketmoq*; **(i)b + yubormoq** – *baqirib yubormoq, yig'lab yubormoq*.

Davom etish fazasi: **(i)b + turmoq** – *yurib turmoq, tomchilab turmoq* (durativ semantika); **(i)b + yurmoq** – *o'ynab yurmoq*; **a + bermoq** – *yashay bermoq, kula bermoq* (protsess davomiyliigi).

Yakuniy faza: **(i)b + bitirmoq** – *ishlab bitirmoq*; **(i)b + bo'lmoq** – *to'qib bo'lmoq*; **(i)b + tashlamoq** – *yirtib tashlamoq*; **(a)b + qo'ymoq** – *o'tab qo'ymoq, tayyorlab qo'ymoq*; **(i)b + chiqmoq** – *o'qib chiqmoq, sanab chiqmoq*.

Faza ma'nosiga ega birikmalar semantik va grammatik jihatdan ko'p qirrali xususiyatga ega. Bu kabi fazaviy konstruksiyalarning o'zbek tilidagi roli va funksiyalari ayrim tadqiqotlarda qayd etilgan.⁹

Shuningdek, o'zbek tilida aspektual ma'nolar bilan bog'liq yana ikki turdagi analitik birikmalar ajratiladi: 1) **turg'un so'z birikmalari:** bular turg'un sintaktik birliklar bo'lib, fazali analitik konstruksiya tarkibida doimiy komponent vazifasini bajaradi. Masalan: *ado qilmoq, bas qilmoq, chek qo'ymoq, tamom qilmoq*. 2) **-edi** bilan hosil bo'lgan o'tgan zamon shakllari: masalan: **-gan + edi** – *yozgan edi*; **(a)r + edi** – *yozar edi*; **-ib + edi** – *o'qib edi*; **yot + gan + edi** – *o'qiyotgan edi*; *yozmoq + da + edi* – *yozmoqda edi*.

⁹ Насилов Д.М. Проблемы тюркской аспектологии. Акциональность. – Ленинград: Наука. 1989. – С. 140-150.

Aspektuallik funksional-semantik maydoniga ajratilgan bu ikki turni ham analitik xaraterga ega birikmalar qatoriga ham qo‘shish asoslidir (qarang: 2-jadval).

O‘tkazilgan tahlil natijasida o‘zbek tilida aspektual ma’no bilan bog‘liq analitik xarakterga ega birikmalar turli shakllarda va strukturada ifodalanishi aniqlandi. Bu birikmalar, o‘z navbatida, harakatning davomiyligi, tugallanganligi, ehtimolligi yoki vaqtini ko‘rsatadigan grammatik elementlardan tashkil topadi.

1.4.1-jadval.

O‘zbek tilida aspektual ma’noli analitik xarakterga ega birikmalar turlari

Analistik shakllar	Turg‘un so‘z birikmalari
<p>1. Yetakchi fe‘l + ko‘makchi fe‘l: yetakchi fe‘l ravishdosh <i>-(i)b, -(a)b</i> shaklda + ko‘makchi fe‘llar: <i>ketmoq, yubormoq, turmoq, yurmoq, bermoq bo‘lmoq, tashlamoq, qo‘ymoq, chiqmoq</i></p>	<p>1. Faza ma’nosiga ega ot + funksional fe‘llar: <i>qilmoq, yetmoq, bo‘lmoq, bermoq, qo‘ymoq, yetkazmoq, topmoq, yasamoq.</i></p>
<p>2. O‘tgan zamon shakllari: a) <i>-gan + edi (bergan edim, kelgan edim);</i> b) <i>-(a)r + edi (yozar edim, berar edim);</i> v) <i>-ib + edi (berib edim, (beruv edim)</i> g) <i>yot + gan + edi (yozayotgan edim)</i> d) <i>yozmoq + da + edi (yozmoqda edim)</i></p>	<p>2. Faza ma’nosiga ega ravish + fe‘l: a) turli harakatlarni ifodalovchi fe‘l-predikat (<i>oxirigacha + yozmoq, gapirmoq, o‘ylamoq...</i>) b) turg‘un birikma sifatida (<i>oxirigacha qilmoq</i>)</p>

Ikkinchi bob “**Nemis tilidagi analitik zamon shakllarining aspektual semantikasi va ularning o‘zbek tilida ifodalanishi**” deb nomlangan bo‘lib, unda nemis tilining perfekt, pluskvamperfekt, futur I, futur II va futural perfekt kabi zamon shakllarining temporal-aspektual ma’nolari tahlil qilinadi. Ayniqsa, ushbu zamon shakllari orqali ifodalanadigan aspektual vaziyat turlari va ularning o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida badiiy matnlar orqali ifodalanish usullari, shuningdek, semantik va struktur xususiyatlaridagi o‘xshashlik hamda farqlar aniqlanadi.

German tilshunosligida perfekt nafaqat grammatik hodisa sifatida, balki tilning universal kategoriyalari bilan bog‘liq murakkab semantik struktura sifatida o‘rganiladi. Perfekt shakli analitik xususiyatga ega bo‘lib, ikki asosiy qismdan tashkil topgan: **ko‘makchi fe‘l** (haben yoki sein) va asosiy fe‘lning **sifatdosh II shakli**. Bu shakl o‘tmishda sodir bo‘lgan, ammo ta’siri hozirgi vaqtgacha saqlanib qolgan holat yoki harakatni ifodalaydi. Ushbu birikmadagi o‘tmish ma’nosi uning

har bir tarkibiy qismiga emas, balki ularning birligiga bog‘liq. Ko‘makchi fe‘l (haben yoki sein) prezens zamonida qo‘llanadi, bu esa harakatni hozirgi zamon bilan bog‘lash xususiyatini ko‘rsatadi. Sifatdosh II grammatik jihatdan o‘tmishda tugallanganlik ma‘nosini bildiradi. Perfekt shakli nafaqat zamon (temporallik), balki tugallanganlik (aspektuallik) ma‘nosini ham o‘z ichiga oladi. Shu sababli, u zamon-aspekt kategoriyasining uyg‘un shakli sifatida qaraladi. Tadqiqotda bu shakllarning o‘zbek tilida qanday ifodalanishi tahlil qilinadi va ikki tilning aspektual tizimlari o‘rtasidagi o‘xshashliklar va farqlar ko‘rsatiladi.

Perfekt shakli aspektuallik nuqtayi nazaridan ikki xil mazmuni ifodalashi mumkin: Perfekt shakli ko‘p hollarda harakatning tugallanganligini yoki natijaviy holatini ifodalaydi. Bunday holatda perfekt shaklida chegaralangan (telik) fe‘llar, ya‘ni yakunlangan yoki muayyan natijaga ega bo‘lgan harakatlarni ifodalovchi fe‘llar ishlatiladi. Masalan: *Nun ist sie aufgewacht* – “Endi u uyg‘ondi” (harakat yakunlandi); *Ich bin schon erfroren* – “Men allaqachon muzlab qolganman” (natijaviy holat). Ayrim hollarda perfekt shakli jarayonni, ya‘ni harakatning to‘liq tugallanmaganligini ifodalashi mumkin. Bunda chegaralanmagan (atelik) fe‘llar qo‘llanadi. Masalan: *Unser Vater ist ein geachteter Kunstschlossermeister gewesen ...hat in der Burgerschaft gesessen* – Bizning otamiz taniqli san‘atkor bo‘lgan” (holat) – “Parlamentda o‘tirgan” (jarayonlilik). Limitativ neytral fe‘llar (ya‘ni ma‘nosiga ko‘ra na telik, na atelik bo‘lgan fe‘llar) kontekstdan kelib chiqib aspektual mazmuni shakllantiradi. Agar tashqi kontekstual vositalar yo‘q bo‘lsa, bunday fe‘llar ko‘pincha harakatni tugallanganlik tarzida ifodalaydi Masalan: *Er hat ein Spielzeug gebastelt* – “U bir o‘yinchoq yasadi” (tugallangan harakat); *Er hat am Spielzeug gebastelt* – “U o‘yinchoq ustida ishladi” (jarayonlilik). Perfekt shakli aspektuallik jihatidan ko‘p qirrali bo‘lib, uning mazmuni fe‘lning aksional turi, kontekst va tashqi semantik vositalarga bog‘liq.

Perfekt shaklining semantikasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda asosiy e‘tibor perfektning tur bilan bog‘liq tugallanganlik va natijaviylik xususiyatlariga qaratiladi, chunki ko‘plab olimlar uning hozirgi zamonga nisbatan ta‘siri mavjudligini tan oladilar. Biroq, ayrim tadqiqotchilar perfekt shakli o‘tmishdagi protsessual voqealarni ham ifodalashi mumkinligini ta‘kidlaydilar¹⁰. Demak, perfekt shaklining semantikasida qarama-qarshiliklarning birligi yaqqol namoyon bo‘ladi: u bir vaqtning o‘zida to‘liqlik (tugallanganlik) va jarayonlilikni qamrab oladi. Bu uning universal lingvistik hodisa sifatida ahamiyatli ekanini ko‘rsatadi.

Chegaralangan fe‘llar bilan nemis tilidagi perfekt shakllari yordamida, odatda, **terminativ aspektual vaziyatlar** ifodalanadi. Bu vaziyatlarda harakat yoki holat o‘z tabiiy chegarasiga yetib, yakunlanadi va natija hozirgi vaqt uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tilida bunday terminativ vaziyatlar turli shakl va modellar yordamida ifodalanadi. Ular asosan o‘tgan zamon shakllari bilan bog‘lanib, quyidagi turlarga ajratiladi: **sintetik shakllar: -di** – harakatning yakunlanganligini ifodalaydi; **-gan** – o‘tgan zamon tugallangan harakatni ko‘rsatadi; **murakkab (analitik) shakllar: -gan + edi** – o‘tmishda sodir bo‘lgan

¹⁰ Andersson S.-G. Aktionalitat im Deutschen. Eine Untersuchung unter Vergleich mit dem russischen Aspektsystem. II. Korpusanalyse. Mit einem Exkurs uber Aktionalitat im deutschen Verbalformsystem. – Uppsala, 1978. – S. 99.

holatning natijaviyligini ta'kidlaydi; **-ib (-ab, -ay) + di** – jarayon va uning tugallanishini bildiruvchi shakl; **-ib + edi** – jarayonli tugallangan harakatni ifodalaydi; **-ar + edi** – harakatning takrorlanishligi yoki davomlilik (protsessualigi) bilan bog'liq holatlarni ko'rsatadi. Bu shakllar ko'p hollarda turli yordamchi fe'llar va kontekstual vositalar bilan qo'llanadi.

Nemis tilidagi perfekt bilan aspektual vaziyatlari va ularning o'zbek tilidagi ifodalari mazmun jihatidan o'xshashdir. Ikki tilda ham terminativlik, jarayonlilik va ularning kombinatsiyasi kuzatiladi. O'zbek tilida ushbu vaziyatlar turli grammatik shakllar va kontekstual vositalar yordamida aniqlanadi, bu esa har ikki tildagi aspektuallikning umumiy xususiyatlarini ko'rsatadi.

Ifoda qilish nuqtayi nazaridan, har ikki tilda ham o'tgan zamon shakllari va kontekstual vositalar muhim rol o'ynaydi. Biroq, nemis va o'zbek tillari o'rtasida muayyan farqlar mavjud: Nemis tilida perfekt shakli asosiy vosita hisoblanadi. O'zbek tilida o'tgan zamon ma'nolarini ifodalovchi sintetik shakllar (*-di, -gan*), murakkab (analitik) shakllar (*-gan + edi, -ib + edi, -ar + edi*), qo'shimchalar va yordamchi (funktional, ko'makchi) fe'llar, kontekstual vositalar orqali ifodalanadi. Nemis tilida perfekt shakli asosan natijaviylikka yo'naltirilgan bo'lsa, o'zbek tili esa o'tgan zamon ma'nolarini kengroq ifodalash imkonini beruvchi sintetik, analitik shakllar va yordamchi fe'llarga tayangan holda boy ifoda vositalaridan foydalanadi. Shuningdek, o'zbek tilida jarayonlilikka alohida ahamiyat beriladi, bu uning leksik va grammatik boyligida yaqqol aks etadi, o'zbek tilida jarayonlilikni ifodalash uchun maxsus shakllar mavjud (masalan, **-ar edi, -a ver + di**).

Tuzilish nuqtayi nazaridan Plyuskvamperfekt ham Perfekt kabi analitik shakl bo'lib, u ko'makchi fe'lning (*haben* yoki *sein*) asosiy fe'lning sifatdosh II shakli bilan birikishidan yasaladi. Bunda perfektdan farqli o'laroq, plyuskvamperfekt tarkibida yordamchi fe'l prezensda, ya'ni hozirgi zamonda emas, balki preterit (o'tgan zamon) da qo'llanadi. Shu sababli plyuskvamperfektning temporallik funksiyasi shundaki, u o'tgan zamonga nisbatan oldin sodir bo'lganlik ma'nosini ifodalashga ixtisoslashgan. Bu temporal funksiya shaklining aspekt semantikasida o'z izini qoldiradi, chunki boshqa harakat boshlanishidan oldin sodir bo'lgan harakat odatda tugagan deb qabul qilinadi. Plyuskvamperfektning asosiy aspektual funksiyasi, perfekt kabi, chegaralangan harakatlarning yaxlitligi va to'liqligida namoyon bo'lish tendentsiyasining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Ushbu aspekt xarakteristikasi ko'pincha natijaviylik ma'nosi bilan bog'liq. Perfekt shakli plyuskvamperfekt shakliga nisbatan o'zining faktikligi bilan ajralib turadi va to'liqlik (tugallanganlik) aspekt ma'nosini ifodalashda ustunlik qiladi. Plyuskvamperfektning yana bir diqqatga sazovor xususiyati shundaki, chegaralangan fe'llar bilan plyuskvamperfektli aspektual vaziyatlarda perfektli aspektual vaziyatlardan farqli o'laroq, ko'pincha davomiylik yoki jarayonlik ma'nosini ko'rsatuvchi til vositalari (*lange, langsam, Tag und Nacht* va boshqalar) uchraydi.

← Nemis tilidagi plyuskvamperfekt shakli orqali ifodalangan harakatlar, odatda, o'zbek tilida ikki xil shaklda beriladi:

1) **-gan + edi** shakli: Bu shakl o'tgan zamonda biror harakat yoki hodisa boshqa bir o'tgan zamon harakati yoki hodisasidan oldin sodir bo'lganini ifodalaydi. Masalan: *Ich hatte den Brief geschrieben, bevor er kam. – U kelishidan oldin men xatni yozgan edim; Wir hatten das Haus gekauft, bevor die Preise stiegen. – “Narxlar oshishidan avval uyni sotib olgan edik”;*

2) **-ib (-ab) + bo'lgan + edi** shakli: Bu shakl ham xuddi shu ma'noni ifoda etish uchun ishlatiladi. Masalan: *Er hatte das Haus gestrichen, bevor der Regen begann. – Yomg'ir boshlanishidan oldin uyni bo'yab bo'lgan edi;*

Keltirilgan ikkita asosiy shakllardan tashqari bizning materialimizda o'tgan zamon qo'shimchasi – *di* hamda temporal ko'rsatgichlar *so'ng, keyin* uchradi.

Futur I analitik shakli nemis tilida hozirgi zamon (prezens) shaklidagi *werden* yordamchi fe'li va asosiy fe'ning infinitiv I shaklidan iborat. Bu shakl kelasi zamoni, ya'ni nutq vaqtidan keyingi holatni ifodalaydi. Futur I shaklining aspektual mazmuni, avvalo, ushbu shaklda ishtirok etadigan fe'ning aksional semantikasi (chegaralanganlik/chegaralanmaganlik)ga bog'liq. Perfektiv fe'llar, masalan, *finden, greifen*, prospektiv (kelajakdagi) terminativ vaziyatlarni, ya'ni harakatning kelajakda to'liq bajarilishi va chegaraga erishishini aks ettiradi. Oddiy chegaralangan fe'llar nafaqat protsessuallik va terminativlikni birga qo'shib keladi, balki prospektiv protsessuallik aspektual vaziyatini ham ifodalashi mumkin. Limitativ neytral fe'llar futur I shaklida asosan protsessuallik yoki harakatning boshlanishini bildiradi, lekin ba'zi hollarda noaniqlik (dualizm) yuzaga kelishi mumkin. Futur I shaklining o'zi protsessuallik va terminativlik aspekt belgilariga nisbatan neytralligi bilan tavsiflanadi, uning aspekt mazmuni avvalo ushbu shaklda qo'llanilgan fe'ning aksional semantikasiga bog'liq bo'ladi.

Futur II nemis tilida kelajakda tugallangan harakatni ifodalash uchun ishlatiladi. U quyidagicha hosil qilinadi: **werden + Infinitiv II (Partizip II + haben/sein)**: *Ich werde gemacht haben* – Men bajargan bo'laman. *Ich werde gegangen sein* – Men ketgan bo'laman. Yordamchi fe'l **werden** kelasi zamoni, **Partizip II + haben/sein** esa tugallanganlikni ifodalaydi. Shu sababli, **Futur II** “kelajakda tugallangan zamon” shakli hisoblanadi. Aspekt nuqtayi nazaridan u tugallanganlik va natijaviylikni aks ettiradi. Uning asosiy xususiyatlari: temporal tugallanganlik, aspektual terminativlik va modal ehtimollik. Aksariyat hollarda bu shaklda chegaralangan fe'llar qo'llaniladi. Ularda istisnosiz terminativlik belgisi aks etadi. Chegaralanmagan fe'llar esa deyarli ishlatilmaydi.

Futur II ning grammatik sinonimi sifatida uning o'rnini erkin egallovchi **Futural Perfekt** tan olinadi. Futural Perfekt futur II kabi kelajakda muayyan vaqtda tugallanadigan harakatni bildirish uchun ishlatiladi. Futural Perfekt, Futur II kabi, zamonaviy nemis tilidagi matnlarda juda kam uchraydi. Futural Perfektning asosiy qo'llanish doirasi bu dialogik nutq va hikoya. Bu shakl qahramonning fikrini, his-tuyg'ularini va nutqini qisman to'g'ridan-tog'ri va qisman o'zlashtirma shaklda ifoda etishni anglatadi. Masalan: *“Er wird nach Hause gegangen sein”, sagte sie* – (*U uyga ketgan bo'lishi kerak, dedi u.*)

Umumlashtirilgan holda biz nemis tilidagi kelasi zamon bilan bog'liq shakllarni va ularning o'zbek tilida berilish usullarini quyidagi jadvalda keltiramiz:

Nemis tilidagi futural shakllarning o‘zbek tilida berilishi

Nemis tilida	O‘zbek tilida
Futur I: werden + Infinitiv	<i>-adi, - aydi; fe’l + -ib/-b/-p + bo‘lmoq; fe’l + moqchi</i>
Futur II: werden + Infinitiv II (Partizip II + haben/sein)	<i>-gan + bo‘lmoq; -adi, -a -gan + keyin</i>
Futural Perfekt: haben/sein + Partizip II	<i>bo‘lgan + bo‘lmoq; -ib + chiqmoq; -ib + olmoq; -ib + bo‘lmoq</i>

Uchinchi bob “**Fazaviy analitik konstruksiyalar va analitik xarakterga ega turg‘un birikmalar**” deb nomlanib, nemis tilidagi fazaviy ma’nolarni, ya’ni jarayonning boshlanishi, davom etishi va tugallanishini ifoda etuvchi konstruksiyalar hamda funksional fe’llar bilan birga keladigan birikmalarni tahlil qilishga, shuningdek, ularning o‘zbek tilidagi muqobil turlarini aniqlashga bag‘ishlangan.

Fazaviy ma’noni ifodalovchi analitik birikmalar (FAB) doimiy komponent (DK – faza ma’nosiga ega bo‘lgan fe’l yoki birikma) va o‘zgaruvchan komponent (O‘K – jarayonni anglatuvchi so‘z)dan tashkil topadi. Ularning umumiy formulasi quyidagicha: **FAB = DK + O‘K**.

Nemis tilida fazaviy ma’noni ifodalovchi konstruksiyalar asosan analitik shaklda tuziladi. Bunda fazaviy fe’l asosiy fe’lning infinitivi bilan birga qo‘llanib vujudga keladi. Masalan:

Boshlang‘ich faza: *anfangen zu arbeiten* — (“ishlay boshlamoq”), *beginnen zu lesen* (“o‘qishni boshlamoq”);

Davomiy faza: *fortfahren zu rauchen* – “chekishni davom etmoq”;

Yakuniy faza: *aufhören zu schreiben* (“yozishni to‘xtatmoq”).

Ushbu birikmalarda fazaviy fe’llar harakatning belgilangan bosqichini ko‘rsatadi. Masalan, **anfangen**, **fortfahren** va **aufhören** faza fe’llari doimiy komponent sifatida harakatning muayyan bosqichini (boshlanish, davom etish yoki tugallanishini) ko‘rsatadi. Asosiy fe’lning infinitiv shakli esa jarayonni tavsiflovchi o‘zgaruvchan komponent rolini bajaradi.

O‘zbek tilida fazaviy ma’no asosan yordamchi (faza ma’nosiga ega) va asosiy fe’llarning turli grammatik shakllari orqali ifodalanadi. Ushbu birikmalarda har bir bosqich faza fe’llari yordamida aniqlanadi. Masalan:

Boshlang‘ich faza: “ishlay boshladi”, “o‘qishga kirishdi”;

Davomiy faza: “ishni davom ettirdi”, “o‘qishni olib bordi”;

Yakuniy faza: “yozishni tugatdi”, “o‘qishni to‘xtatdi”.

Bunday birikmalar jarayonning muayyan qismini yoki harakatning dinamikasini aks ettiradi. Bunda faza fe’llari (“boshlamoq”, “davom etmoq”, “tugatmoq”) harakatning mazmunini belgilab, jarayon bosqichlarining semantik xususiyatlarini ajratib ko‘rsatadi.

Nemis tilida boshlang‘ich faza ma‘nosi asosan *beginnen* va *anfangen* fe‘llari yordamida ifodalanadi. Ular sof lug‘aviy ma‘noda qo‘llanib, yagona “boshlanish” semasiga ega: *Er beginnt zu lesen* – U o‘qishni boshlaydi. *Beginnen* + *Infinitiv* kabi birikmalar o‘zbek tilida nafaqat *boshlamoq* fe‘li bilan, balki mavhum ma‘noda boshlang‘ich fazani bildiruvchi *ketmoq*, *o‘tmoq*, *tushmoq*, *tushib ketmoq*, *qo‘zg‘almoq*, *bormoq*, *yubormoq*, *kirishmoq* kabi fe‘llar yordamida ham ifodalanadi.

Nemis tilidagi *beginnen* va *anfangen* + *zu* + *Infinitiv* kostruksiylalar bilan ifodalangan boshlanqich faza ma‘nosi, o‘zbek tilida turli vositalar orqali ifoda etiladi. Quyidagi jadvalda materialimizda uchragan modellar turlarini keltiramiz.

3.1-jadval

Boshlang‘ich fazani ifodalovchi modellar

Nemis tili	O‘zbek tili	Misollar
<i>beginnen</i> + <i>zu</i> + <i>Infinitiv</i>	<i>boshlamoq</i> + ravishdosh –a / –ya shaklida	U ishga kirisha boshladi. U o‘ynay boshladi.
<i>anfangen</i> + <i>zu</i> + <i>Infinitiv</i>	<i>boshlamoq</i> + <i>ot</i> (tushum kelishigida)	U darsni boshladi.
—	<i>boshlamoq</i> + so‘z birikmasi (<i>ot</i> + fe‘l; tushum yoki umumiy kelishikda)	U suhbat qurishni boshladi.
—	<i>kirishmoq</i> + harakat nomi (yo‘nalish kelishigi –ga)	U yozishga kirishdi.
—	<i>o‘tmoq</i> + so‘z birikmasi (yo‘nalish kelishigi –ga)	U ko‘ndirish yo‘liga o‘tdi.
—	<i>tushmoq</i> + harakat nomi (umumiy yoki tushum kelishigida)	U ishga tushdi.
—	<i>tushib ketmoq</i> + <i>ot</i> (yo‘nalish kelishigi –ga)	U gapga tushib ketdi.
—	<i>bermoq</i> + ravishdosh –ib / –ub / –b shaklida	U kulib berdi.
—	<i>yubormoq</i> + ravishdosh –ib / –ub / –b shaklida	U kulib yubordi.
—	<i>solmoq</i> + <i>ot</i> (umumiy yoki tushum kelishigida)	U harakatga soldi.
—	<i>qo‘zg‘almoq</i> + <i>ot</i> (chiqish kelishigi –dan)	U joyidan qo‘zg‘aldi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, nemis tilidagi *beginnen* va *anfangen* fe‘llari ishtirokidagi fazaviy analitik konstruksiyalarni o‘zbek tilida ham analitik vositalar (ya‘ni fazaviy semantikaga ega fe‘lning asosiy fe‘lning ravishdosh shakli bilan qo‘llanishi) orqali, ham oddiy sintaktik tuzilmalar yordamida ifodalash mumkin.

Nemis tilida to‘xtagan jarayonni **davom ettirish** (etish) ma‘nosi asosan sinonim bo‘lgan **fortfahren** va **fortsetzen** fe‘llari bilan ifodalanadi. Bu fe‘llarning ifoda jihatidan farqi shundaki, doimiy komponent vazifasini bajaruvchi **fortfahren** fe‘li o‘zgaruvchan komponent sifatida keluvchi asosiy fe‘lning infinitiv shakli bilan birikishi mumkin, **fortsetzen** esa bunday qobiliyatga ega emas va u o‘timli fe‘l bo‘lib o‘zgaruvchan protsessual komponent sifatida akkuzativda kelgan *ot*

bilan birikadi. Masalan: *Er fuhr fort zu rauchen, obwohl es ihm der Arzt untersagt hatte* – *Shifokor chekmaslikni aytganiga qaramay, u chekishni davom ettirdi; Nach einer kurzen Rast setzten sie die Fahrt fort.* (Qisqa dam olishdan so‘ng ular safarni davom ettirdilar).

O‘zbek tiliga qilingan tarjimalarda uzilib qolgan jarayonning davom etilishi (etishi) *davom etmoq* (*ettirmoq*), *davom qilmoq* birikmalari orqali ifodalanadi, ya’ni davomiy faza ma’noli ot (*davom*) va ko‘makchi fe’l (*etmoq*, *qilmoq*) birikmasi yordamida ifoda qilinadi.

Davomiylik faza ma’nosining ikkinchi turi, ya’ni aspekt qiymatlari bilan bog‘liq davomiylik ham analitik usul bilan, ya’ni analitik konstruktsiya yordamida o‘z ifodasini topadi. Bunda asosan ko‘makchi fe’llar ishtirokidagi birikmalardan foydalaniladi. Bunday analitik birikmalarda protsess ma’nosi fe’lning *-ab /-ib* yoki *-a/ay* ravishdosh shakli yordamida yoritilsa, fazaviy davomiylik ma’nosi bilan bog‘liq bo‘lgan aspektual belgilar ko‘makchi fe’llar bilan bog‘lanadi. Bunda ko‘makchi fe’llar sifatida holatni anglatuvchi *turmoq*, *o‘tirmoq*, *qolmoq* va yurish harakat fe’llari *yurmoq*, *bormoq*, *kelmoq*, *ketmoq* qo‘llaniladi. Keltirilgan fe’llar o‘zining abstrakt (mavhum) ma’nosida protsessual semantikaga ega bo‘lgan so‘zlar (ravishdosh shaklida) bilan birikib davomiylik ma’nosini ifodalashga xizmat qiladi: *kimdir ishlab (o‘qib...) yuribdi, ular gapirib turibdi, yozib o‘tiribdi, u bir narsani yozib borardi.*

Nemis tilida **yakuniy faza** ma’nosini ifodalovchi vositalar turli til birliklari orqali namoyon bo‘ladi. Ular quyidagicha tasniflanadi:

Fazaviy finitiv fe’llar: Masalan: *aufhören, abbrechen, unterbrechen, enden, beenden, vollenden, schließen, abschließen, beschließen;*

Ot-fe’l birikmalari: *zu Ende sein, ein Ende haben, ein Ende finden, ein Ende nehmen, ein Ende erreichen, ein Ende machen, ein Ende setzen, ein Ende bereiten, zu Ende gehen, zu Ende kommen, zu Ende laufen, zu Ende führen, zu Ende bringen.*

Finitiv ravish va bog‘lovchi fe’l **sein** bilan tashkil etilgan **birikmalar:**

*aus sein, vorbei sein, vorüber sein, fort sein, um sein, alle sein, hin sein, weg sein.*¹¹

Bu vositalar ichida *aufhören* fe’li asosiy vosita bo‘lib infinitiv shakli bilan birikish qobiliyatiga ega: *aufhören + zu + Infinitiv*. Demak, yakuniy faza qiymatlarini analitik usulda aks ettiruvchi asosiy vosita sifatida birinchi navbatda **aufhören + zu + Infinitiv** hisoblanadi.

Ko‘rsatilgan barcha vositalar fazali analitik konstruktsiya tarkibida doimiy komponent (DK) sifatida ishtirok etishi mumkin, uning o‘zgaruvchan komponenti (O‘K) esa turli shakllarda (infinitiv, ot) ifodalangan to‘xtatilayotgan jarayon nomlanishidan iborat bo‘ladi. Bunday birikmalarni fazaviy analitik birikmalar deb tavsiflash mumkin, chunki ular biz qabul qilgan modelga mos keladi. Qiyoslang: *Er hörte auf zu schreiben* – (U yozishni to‘xtatdi); *Die Arbeit war zu Ende* – (Ish

¹¹Ризаев Б.Х. Семантика конструкций с финитивными глаголами. (на материале немецкого, русского и узбекского языков). Учебное пособие. – Ташкент: Янги аср авлоди, 2020. – С. 31; Ризаев Б.Х. Финитив семантика турфун сўз бирикмалари. – Самарканд: СамДЧТИ, 2022. – Б. 11-16.

tugadi); *Er führte seine Arbeit zu Ende* – (U ishini oxiriga yetkazdi); *Das Spiel ist aus* – (O‘yin tugadi); *Seine Zweifel und Nöte waren fort (hin, weg)* – (Uning shubha va tashvishlari yo‘qoldi).

O‘zbek tilida yakuniy faza ma’nolari ko‘p qirrali bo‘lib, ular quyidagi vositalar orqali ifoda qilinadi: Fazaviy **finitiv fe’llar**: *tugatmoq, tamomlamoq, to‘xtatmoq*; **Finitiv ot-fe’l birikmalari**: *ado qilmoq, bas qilmoq, barham bermoq, xotima qo‘ymoq, chek qo‘ymoq, yo‘q qilmoq*; **Analitik shakllar**: *-(ib) + ko‘makchi fe’llar*. Sof analitik shakllar sifatida finitiv faza ma’nosi o‘zbek tilida protsessni anglatuvchi fe’lning ravishdosh shakli – *(ib)* va bir qator ko‘makchi fe’llar (*bo‘lmoq, chiqmoq bitmoq, bitirmoq, tashlamoq, yubormoq, olmoq, bermoq*) birikuvi hisoblanadi: *ishlab bo‘lmoq, yonib bitmoq, ishlab chiqmoq, yozib tashlamoq*.

Nemis va o‘zbek tillarida fazaviy birikmalarning grammatik va semantik xususiyatlari ma’lum darajada o‘xshashliklarga ega. Har ikkala tilda faza ma’nosi analitik turdagi konstruktsiyalar yordamida o‘z aksini topishi mumkin. Doimiy komponent jarayon bosqichini bildiradi, o‘zgaruvchan komponent esa harakat mazmunini aks ettiradi. Biroq, ushbu konstruktsiyalarning amaliy ifodasida farqlar mavjud: nemis tilida fazaviy fe’l yordamida voqelangan jarayon ham infinitiv, ham ot shaklida bo‘lishi mumkin; o‘zbek tilida esa o‘zgaruvchan jarayon komponenti fe’lning ravishdosh shakli orqali, doimiy komponent esa fazaviy ma’noga ega yordamchi fe’l shakli bilan ifodalanadi. Yana bir xususiyat shundan iboratki, agar nemis tilida fazaviy konstruktsiyaning doimiy komponenti sifatida bir qator finitiv ravishlar bir xil yordamchi fe’l bilan birikib kelsa (masalan: *aus, vorbei, vorüber, fort, um, alle, hin, weg + sein*), o‘zbek tilida bunday vazifada faqat bitta finitiv ma’noga ega ravish qatnashadi, yani *oxirigacha*, bu esa nemis tilidagi *zu Ende + fe’l* konstruktsiyasiga ekvivalent bo‘ladi. Masalan: *zu Ende reden, schreiben, hören* → *oxirigacha gapirvoq, yozmoq, eshitmoq, qilmoq* (gapirishni, yozishni, eshitishni oxirigacha bajarish).

Hozirgi zamon nemis tilida aspektual ma’nolarni analitik usulda ifodalashda ishtirok etuvchi muhim vositalardan biri – bu **Funktionsverbgefüge** (funktional fe’lli birikmalar) hisoblanadi. Ular fe’l va otdan iborat bo‘lib, fe’l komponenti o‘zining mavhum (ko‘chma) ma’nosida qo‘llaniladi. Asosiy ma’noni esa ot (nominal komponent) ifodalaydi, shu tariqa butun birikma bitta sintaktik birlik – predikat vazifasini bajaradi. Masalan: **zur Verfügung stehen** (tasarrufda bo‘lish), **zu Ende gehen** (tugamoq). Bu birikmalardagi fe’llar “funktional fe’llar” yoki “yarim yordamchi fe’llar” deb ataladi¹², chunki ular semantik jihatdan turli darajada zaiflashgan va desemantizatsiyaga uchragan. Bu tuzilmalar tilshunoslikdagi analitizm printsipi bilan bog‘langan bo‘lib, ularni fe’l va otning ma’noviy-strukturaviy birligi sifatida ko‘rib chiqish mumkin. Nemis tilida mazkur birikmalar yordamida **durativlik** (muayyan holatda bo‘lmoq, harakat oqimi) – *sich*

¹² Polenz P.v. Funktionsverben im heutigen Deutsch. Sprache in der rationalistischen Welt // Beihefte zur Zeitschrift “Wirkendes Wort”. H. 5. – Düsseldorf: Schwann, 1963; Uschkowa N. W. Untersuchung der Verbbedeutung in den deutschen Nominalumschreibungen analytischen Typs // Transactions TST. – Тюмень: Вестник ТГТУ, 2004.– № 4Б. – S. 1235-1242.

in Bewegung befinden – harakatda bo‘lmoq; *in Verbindung stehen* – aloqada bo‘lmoq; *im Sterben liegen* – o‘lim arafasida bo‘lmoq (*yotmoq*); **inxoativlik** (holatning o‘zgarishi, boshqa holatga o‘tish) – *in Gang* (*Bewegung, Schwung, Verlegenheit, Ärger*)- *bringen* – harakatga keltirmoq; shovqin-suron, qiyinchilik, asabiylik hosil qilmoq; **fazaviy harakat tarzi** (boshlanish, davom etish va jarayonni tugatish) - *einen (seinen) Anfang, ein Ende, Fortsetzung nehmen* – *boshlanishni olmoq, boshlanmoq, yakun topmoq, davom etmoq* kabi aspektual jihatdan harakat tarzlarni ifodalashda qatnashadi. Funktsional fe‘llar sifatida turli leksik-semantik guruhlarga kiruvchi fe‘llar qatnashishi mumkin. Ammo, aksariyat hollarda yurish-harakat, inxoativ, durativ va kauzativ fe‘llar qatnashadi. O‘zgaruvchan komponent sifatida nafaqat turli protsesslarni bildiruvchi mavhum otlar, balki faza bosqichlarini ifodalovchi mavhum otlar ham qo‘llaniladi.

Nemis tilidagi funktsional fe‘lli birikmalar (Funktionsverbgefüge) o‘zbek tilidagi turg‘un ot-fe‘l birikmalariga tuzilish va ma‘no jihatidan o‘xshashlikka ega. Masalan: **Qo‘shma fe‘llar:** *eine Entscheidung treffen* – qaror qabul qilmoq. O‘zbekcha qo‘shma fe‘llarda “qabul qilmoq” jumlasidagi “qabul” asosiy ma‘noni, “qilmoq” esa fe‘llik funksiyani bajaradi; **Turg‘un birikmalar:** *zu Ende bringen* – oxiriga yetkazmoq. Bu turda asosiy ma‘no ot orqali ifodalanadi, fe‘l esa yordamchi vazifani bajaradi. Nemis tilida funktsional fe‘llar soni 100 dan ortiq, o‘zbek tilida esa ular ancha oz. Lekin o‘zbek tilidagi qo‘shma va turg‘un birikmalarining ko‘plab turlari Funktionsverbgefüge’ga yaqin tuzilmalar sifatida qaralishi mumkin. Shuningdek, funktsional fe‘lli birikmalarining to‘liq mos keluvchi analogi o‘zbek tilida yo‘q. Bu o‘xshashliklar tillar o‘rtasidagi analitiklik prinsipining o‘ziga xos ifodasini ko‘rsatadi.

XULOSA

1. Analitik fe‘l shakllari tilning grammatik tizimida muhim o‘rin tutadi. Ular sintetik shakllar bilan birga funktsional birlikni tashkil qilib, tilning semantik va sintaktik murakkablik darajasini oshiradi. Analitik shakllar mavjud bo‘lgan tillarda, birinchidan, ular flektiv shakllarga (yoki ularning analoglariga) qarama-qarshi qo‘yiladi, ikkinchidan esa, bunday tillarda tizimning periferiya qismida turli analitik tuzilmalar mavjud bo‘lishi kerak.

2. Tilshunoslilda analitik shakllar **tor** va **keng** ma‘noda tushuniladi. Tor ma‘noda, ular leksik ma‘nosini qisman yoki to‘liq yo‘qotgan ko‘makchi fe‘llardan tashkil topadi va grammatikalashuv darajasi, idiomatik xususiyatlari hamda sintaktik butunlik asosiy mezon hisoblanadi. Keng ma‘noda esa, analitik shakllar o‘zining leksik ma‘nosini qisman yoki to‘liq saqlab qolgan fel bilan birikmalarni ham qamrab oladi va asosiy mezon sifatida analitik xarakterga ega birikmalarining funktsional-semantik xususiyati qabul qilinadi. Bu yondashuv analitik shakllarning til tizimidagi funksiyalarini har tomonlama ochib berishga imkon beradi.

3. Erkin so‘z birikmalari va analitik shakllar o‘rtasidagi asosiy farq ularning leksik va grammatik xususiyatlarida namoyon bo‘ladi. Erkin so‘z birikmalari o‘z komponentlarining to‘liq leksik ma‘nosini saqlab qolsa, analitik shakllar umumiy

grammatik ma'noni ifodalaydi va bo'linmas birlik hisoblanadi. Bu farq analitik shakllarning o'ziga xosliklarini aniqlashda muhim mezon bo'lib xizmat qiladi.

4. Qiyoslanayotgan tillarda temporal va aspektual ma'nolarni analitik usulda ifodalash uchun turli grammatik vositalar qo'llaniladi. Nemis tilida bu murakkab zamon shakllari, fazaviy fe'llar bilan tuzilmalar hamda funksional fe'llar bilan birikmalardir. O'zbek tilida esa asosan "ravishdosh + ko'makchi fe'l" tipidagi tuzilmalar ustunlik qiladi. Har ikkala til aspektual va temporal ma'nolarni ifodalash uchun analitik tuzilmalardan faol foydalanadi. Biroq ularning tizimlari yordamchi komponentlarning tuzilishi va grammatikalashuv usullari jihatidan farqlanadi.

5. Aspektual va temporal ma'nolar har ikki tilda ham grammatik vositalar orqali o'zaro chambarchas bog'langan. Bu bog'liqlik tilning sintaktik va semantik tizimini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, nemis tilida Perfekt shakli o'tmishdagi harakatning hozirgi vaqtga ta'sirini ko'rsatsa, o'zbek tilida bunday qiymatlar bir nechta o'tgan zamon shakllari va analitik vositalar orqali amalga oshiriladi.

6. Nemis va o'zbek tillarida aspektuallikning funksional-semantik maydonida fe'llar va so'z birikmalari ishtirok etadi. Bu maydonda, ayniqsa, boshlanish, davom etish va yakunlanish fazalari alohida ahamiyatga ega. Nemis tilida ular asosan fazaviy va funksional fe'llar yordamida ifodalanadi. O'zbek tilida esa bu ma'nolar analitik xarakterga ega bo'lgan o'xshash vositalar hamda maxsus sintetik shakllar orqali berilishi mumkin. Har ikkala tilda fazaviy ma'nolar universal lingvistik kategoriya sifatida tan olinadi.

7. Analitik xarakterga ega birikmalardagi aspektual ma'nolar, birinchi navbatda, ularning tarkibiy komponentlarining aksional semantikasiga bog'liq, yani ularning tarkibida mavjud bo'lgan doimiy va (yoki) o'zgaruvchan komponentlarning semantikasida potensial chegara belgisining mavjudligi yoki mavjud emasligiga asoslanadi. Chegaralanganlik/chegaralanmaganlik – bu fe'l leksemasining xususiyati bo'lib, u tasvirlanadigan harakatning obyektiv tabiati bilan chambarchas bog'liq bo'lishi bilan birga, ushbu til belgisiga uning eng muntazam, ommaviy nutqiy ko'rinishlarida (aksional frazalarda) xos bo'lgan aspektual belgilarni umumlashtiradi.

8. Nemis tilida yordamchi fe'llar (*haben, sein*) analitik shakllar yasashda asosiy vosita hisoblanadi. Ular yordamida, masalan Perfekt, Pluskvamperfekt kabi tur-zamon shakllari hosil qilinadi. O'zbek tilida esa bu qiymatlar turli sintetik va analitik shakllar yordamida amalga oshiriladi. O'zbek tilida yordamchi fe'llar (masalan, *ketmoq, turmoq, yetmoq, bo'lmoq*) harakatning davomiyligi, boshlanishi yoki yakunlanishini aniqlash uchun ishlatiladi. Bu yordamchi komponentlar ikki til tizimining grammatik xususiyatlarini ochib beradi. O'zbek tilida esa aspektual ma'nolarni ifodalashda ko'makchi fe'llar muhim ahamiyat kasb etadi. Analitik birikmalar orqali tur va harakat turlari kabi aspektual qiymatlar ifodalanadi.

9. Til o'rganuvchilari uchun zamon va aspektual ma'nolarni to'g'ri tushunish muhim ahamiyatga ega. Nemis va o'zbek tillarini o'rganishda bu kategoriyalarning farqli va o'xshash jihatlarini bilish til o'rganuvchilarning

grammatik tuzilmalarni tez va samarali o'zlashtirishiga yordam beradi. Ayniqsa, aspektual ma'nolarni qiyoslash nemis tilining murakkab grammatik tizimini tushunishni osonlashtiradi. Bu xususan, perfekt, plyuskvamperfekt va futur zamon shakllarining to'g'ri qo'llanishiga yordam beradi.

10. Tadqiqot natijalari nemis va o'zbek tillarini o'qitishda grammatik qiymatlarni to'g'ri tushuntirish va qiyosiy misollar orqali grammatikadagi qiyinchiliklarni yengillashtirish imkonini yaratadi. Shuningdek, bu materiallar asosida metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish mumkin. Aspektual va temporal kategoriyalar bo'yicha kelajakdagi izlanishlar turli tillarning grammatik tizimlarini chuqurroq o'rganishga yo'l ochadi. Bundan tashqari, bu sohadagi tadqiqotlar yangi nazariy yondashuvlarni ishlab chiqish, tilshunoslikda innovatsion metodlarni joriy qilish va tarjima jarayonlarini optimallashtirish uchun zamin yaratadi. Tadqiqot xulosalari tilshunoslik, tarjima nazariyasi va amaliy grammatika sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PhD.03/30.12. 2019.Fil.83.01 ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

СОДИКОВА НАЗОКАТ ГАФОРОВНА

**ТИПЫ АНАЛИТИЧЕСКИХ КОНСТРУКЦИЙ С АСПЕКТУАЛЬНЫМ
ЗНАЧЕНИЕМ В СОВРЕМЕННОМ НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ
ЯЗЫКАХ**

10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и переводоведение

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Тема диссертации доктора философии по филологическим наукам (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2025.1.PhD/Fil5781.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский размещён на веб-сайте Научного совета www.samdchti.uz, а также на Информационном образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Ризаев Баходир Хайдарович**
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Сулейманова Нилуфар Жабборовна**
доктор филологических наук (DSc), профессор

Рузиев Яраш Бозорович
доктор филологических наук (DSc), доцент

Ведущая организация: **Каршинский Государственный Университет**

Защита диссертации состоится «14» ноября 2025 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12. 2019.Fil.83.01 при Самаркандском государственном институте иностранных языков. (Адрес: 140117, Узбекистан, Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел: (99866) 2433-78-43; Факс (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована под № 6238). Адрес: 140117, Узбекистан, Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел: (99866) 233-78-43

Автореферат диссертации разослан «30» октября 2025 г.
(протокол реестра за № 45 от «30» октября 2025 г.)



Н.З. Насруллаева
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

У.У. Кулдошов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

Д.А. Киселёв
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филол. наук (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мировом языкознании всё больше внимания уделяется исследованию традиционной классификации грамматических значений в рамках существующих способов их выражения и в отдельных языках изучению изменений грамматического значения слов и их форм на основе внесения дополнительных морфологических средств. Об этом свидетельствуют многочисленные научные проекты, направленные на выявление морфологических и синтаксических особенностей языка и определение семантических связей между ними и аспектуальными формами глагола. Одним из актуальных вопросов в области языкознания сегодня представляется тот факт, что аспектуальная семантика в немецком и узбекском языках выражается посредством различных аналитических средств и аналитические глагольные формы не только занимают важнейшее место в грамматической системе языка, но и образуют функциональную единицу вместе с синтетическими формами, тем самым повышая уровень семантико-синтаксической сложности языка.

В мировых языковых центрах изучение средств выражения аспектуальных значений представляет собой одну из наиболее сложных задач. Поэтому выражение аспектуальных значений синтетическими и аналитическими методами, в отличие от морфологических средств, заключается в том, что аналитические конструкции до сих пор неполноценно классифицированы на основе общепринятых критериев, что создает пробелы в систематизации механизмов формирования смысла языка, а изучение подобных комбинаций на материале различных языков позволит более глубоко понять и раскрыть их сходства и различия. Изучение языков, имеющих различные аспектуальные системы, такие как немецкий и узбекский языки, способствует выявлению их универсальных и специфических особенностей, развитию межкультурного диалога, изучению конструкций аналитического характера в общей лингвистике. Определение критериев отделения аналитических конструкций от словосочетаний, изучение видов и основных признаков конструкций аналитического характера с аспектуальным значением в немецком языке, а также выявление структурно-семантических свойств аналитических конструкций в узбекском языке представляется одной из актуальных задач языкознания.

Проводимые в нашей стране реформы, а также глубокие преобразования в общественной жизни находят свое отражение во всех областях науки, в том числе и в области языкознания, включая внедрение передовых стандартов высшего образования, исходя из международного опыта, включая поэтапный переход от образования, ориентированного на получение теоретических знаний, к системе образования, направленной на формирование практических навыков. Это, в свою очередь, обуславливает необходимость обогащения современной лингвистики инновационными принципами и

критериями.¹³ Сопоставительное изучение аналитических конструкций с аспектуальной семантикой в современных немецком и узбекском языках, а также анализ их структуры и функциональных особенностей представляет собой актуальную задачу, как в теоретическом, так и в практическом плане. Конструкции с аспектуальной семантикой посредством различных грамматических и семантических средств выражают начало, продолжение или завершение действия. Они не только описывают характер течения действий, но и выполняют функцию их распределения во времени. Поэтому аспектуальная семантика имеет особое значение для анализа языковых единиц с функционально-семантической точки зрения.

Указы Президента Республики Узбекистан: № УП-6097 от 29 октября 2020 года «Об утверждении концепции развития науки до 2030 года», №УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Постановления Президента Республики Узбекистан: №ПП-3775 от 5 июня 2018 года «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших учебных заведениях и обеспечению их активного участия в широкомасштабных реформах, проводимых в стране», №ПП-4884 от 6 ноября 2020 года «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования», №ПП-4963 от 25 января 2021 года «О мерах по поддержке научно-исследовательской деятельности в сфере народного образования и внедрению системы непрерывного профессионального развития», № ПП-5117 от 19 мая 2021 года «О мерах по выводу на качественно новый этап деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан», а также другие нормативно-правовые документы, касающиеся данной сферы, создают основу для реализации задач, которые находят своё решение в данной диссертации.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики: I. «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в процессе социального, экономического, культурного и духовно-просветительского развития информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. В разработке вопроса об аналитических средствах значительный вклад внесли такие исследователи в области общего и германского языкознания, как М.М.Гухман, В.М.Жирмунский, Л.Р.Зиндер, Т.В.Строева, О.И.Москальская, В.Г.Адмони, А.А.Леонтьев, Ю.Л.Левитов, А.В.Баклушин, П.Айзенберг, О.Тойбер, Р.Щепаняк, Н.В.Ушкова и другие¹⁴.

¹³ Указ Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года». // Халқ сўзи, 09.10.2019. № 209 (7439).

¹⁴ Гухман М.М. Глагольные аналитические конструкции как особый тип сочетаний частичного и полного слова (на материале немецкого языка) // Вопросы грамматического строя. - Москва, 1955. - С. 322-361; Жирмунский В. М. Об аналитических конструкциях // Аналитические конструкции в языках различных

В аспекте сопоставительного анализа данная проблема исследовалась в работах Ж.Бурунова, А.А.Юлдашева, Х.А.Дадабоева, З.Т.Холмоновой и М.А.Эроглу¹⁵.

В тюркских языках вопросы аналитизма освещены в работах Б.А.Серебренникова, А.Г.Гуломова, А.А.Юлдашева, А.Ходжиева, С.Т.Норматовой, М.И.Бегматовой¹⁶.

Наряду с этим, аспектуальные значения, связанные с аналитическими конструкциями (вид, способ действия и фазовые этапы), рассматриваются в трудах Д.М.Насилова, Н.Махмудова, А.Нурмонова, А.Сабирова, Д.Набиева, Ю.Лагунова, С.Пепоуны, М.А.Эроглу, Ю.Ю.Хлыстуновой, Н.Н.Ульяновой, Х.Фатера, А.О.Муминовой.¹⁷

